



JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING ILG'OR FIKRLARI VA ZAMONAVIY G'OYALARI.

Akbarova Feruza Uktamjonovna

Qo'qon Davlat Universiteti tayanch doktoranti.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15718032>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 10-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 16-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

ta'lim, jadid, fikr, g'oya, tarbiya, pedagogika, zamonaviy, islohot, mazmun, bo'lajak o'qituvchi, tafakkur, bilim, evalyutsiya, renessans.

ABSTRACT

Ushbu maqola jadid namoyondalarining pedagogika sohasidagi fikrlari va ularni amalga oshirish g'oyalarini bugungi kundagi ta'lim sohasidagi yangiliklar, olib borilayotgan ishlar bilan mutanosibligi va zamonaviy fikrlar bilan g'oyaviy jihatdan bog'liqligini ko'rsatib beradi. O'z davridagi ahamiyati va dolzarbligini hozirgi ilg'or tajribalar va davlat siyosatida namoyon bo'layotganligini bilishimiz mumkin

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiiq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o'sishini susayishiga sabab bo'lmoqda. Pedagogika oliygohi bitiruvchisi, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish, shu bilan birga mavjud o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi.¹ Ta'lim va tarbiya sohasini rivijiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri sifatida jadidchilik harakatini olib qaraydigan bo'lsak ularning oldiga qo'ygan maqsadlari pedagogik tafakkurlarining naqadar yuksak bo'lganligi bilan bog'lash mumkindir. Prezidentimiz aytganidek: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"² Ularning faoliyatida milliylik va zamonaviylik uyg'unlashgan xolda olib borilgan bo'lib bugungi kun o'qituvchisidan xam anashu faoliyat talab qilinmoqda. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar xam uning fizialogik hususiyatlarini hisobga olinmagan holda ishlab chiqilayotgandek fikr uyg'otadi, lekin jadidchilik namoyondalari nafaqat pedaggogika sohasida faoliyat yuritgan, balki bir vaqtning o'zida iqtisodiy sohada, noshirlik va adiblikni hammda jamoatchilik ishlarida madaniy -

¹ O'zbekistonda pedagog kadrlar sifati va ularni yetuk kardlar qilib tayyorlashni moliyalashtirish masalalari Odilova Maxliyoxon Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi E-mail: odilovamaxliyo04@gmail.com

² "Tarjimon" g , 1906-yil, 69-son. -B .112

ma'rifiy faoliyatni ham olib borganlar. Ijtimoiy hayotni muammolariga etibor qaratganlar. Ta'limning rivoji uchun homiylikni dastlabki o'rinlarda shaxsiy namuna sifatida bajarishgan. Sog'lom fikr bilan birgalikda sog'lom turmush tarzi, sog'lom ko'rinishga ega bo'lganlar. O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi. O'ylaymizki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.³

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili: O'qituvchi evalyutsiyasida jadidlar faoliyati nafaqat savodxonlik balki manaviy qiyofa xam kasb etgan . Bunda xalqni ijtimoiy yuksalishi, milliy g'urur , o'zlikni anglash, Markaziy Osiyo xalqlari orasida tarixiy bo'g'liqlikdan kelib chiqan xolda siyosiy vaziyatlarga baxo bera olish ,kabi fikrlar tarqqiyotning tadrijiy yo'lini tanlashda munosib reja bo'lib xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin.Ular birinchilardan bolib Turkistonda zamonaviy oily maktab g'oyasini ilgari surgan . Ma'lim manoda siyosiy fikrlarni ham olg'a sura boshlashdi. Yuqori darajada ta'lim masalalarini rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr , g'oyalarni ilgari surdilar.Yangiliklarga asoslangan holda pedagoglik sohasiga ayol o'qituvchilarni jalb qilib ularni faoliyat yuritishlari uchun shart sharoitlar yaratganlar. Qaxramon Rajabov, Dilorom Alimova , Ulugbek Dolimov, Sirojiddin ahmadlarning yaratgan asarlarida taraqqiyparvar jadidlarning jadid maktablarini faoliyati , pedagogic fikrlari , falsafiy qarashlari, maqsad va vazifalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

E.Karimov, S.Kosimov, O.Sharafiddinov, Sh.Turdiev, X.Boltaboev, S.Xolboev, A. Nasriddinov, B.Ergashev, T.Berdiev, N.Karimov, B.Imomov, S.Axmedov, G.Ahmadjonov, Z.Eshmurodovlarning tadqiqotlarida hamda J.A.Urumbaev va U.Aleuovlarning ilmiy izlanishlarida jadidchilik faoliyatining ulkan yutuqlari tadqiq etildi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq"⁴ asarida ham asosiy mavzu sifatida tilga e'tibor qaratilgan. O'z ona tilini pedagoglar yaxshi o'rganmog'i, pedagogik jarayondan kerakli o'rinlarda foydalana olmog'l, jaded marifatparvarlari pedagogik qarashlarida insonning qadr - qimmatini bu o'z ona tilini mukammal bilmog'ida ekanligini etirof etilgan.

A.Xudayqulov , G. Solijinovalar ishida birinchi jadid maktabi sifatida, turli joy va turli insonlarni keltirishadi va bu maktablar faoliyati xaqida so'z yuritiladi.Yana bir tadqiqotchi D.A Alimova dastlab jadidchilik fikrlari markazida maorifni isloh qilish, kutubxonalar ochish,o'quv qo'llanmalari yaratib o'z g'oyalarini amalda qo'llash ekanligini yoritib bergan. S. axmedovning tadqiqot ishi ma'lumotlariga ko'ra Munavvarqori maktabida tayyorgarligi

³ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "ACTUAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS" April 26, 2024. 83PEDAGOG FAOLIYATIDA JADID MA'RIFATPARVARLARI MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATIDavlatxon Rustamova Toyirjon qizi, Soliyeva Sarvinozxon Azizjon qizi. 1FarDu, o'qituvchi, 2 FarDU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi <https://doi.org/10.5281/zenodo.11004566>

⁴ Tarjimon"g , 1906-yil, 69-son. –B .112

anchagina jiddiy bo'lgan istedodli yoshlar muallimlik qilishgan. Munavvarqori maktabida o'quvchilarni shariatga doir manbalarni o'z tillarida o'rgatgan, o'qitgan

Bugungi kundagi ma'lumotlar shuni takidlamodaki jadidlar faoliyatida pedagogik qarashlar hozirgi davr zamonaviy ta'limida pedagogik fikrlarni g'oyaviy asosini tashkil qiladi va o'z qiymatini yo'qotmagan.

Tadqiqot metadalogiyasi: Tadqiqot jarayonidagi o'rganilgan manbalar natijasida Turkiston jadidlarining pedagogik sohadagi kiritgan o'zgarishlari, ularni fanlarni o'qitish, ajratiladigan vaqt, mavzular, o'quvchiga yetkazib berish borasidagi ilgari surgan g'oyalari, o'qituvchi tafakkurini yuksaltirishga talablari har jihatdan fanlar meto'dikasiga mos kelishi, davrlar kesimida ham manfaatli ekanligi mustaqilligimizgacha va yaqin tarixda ham asoslandi. Xususan, yuqoridagi ilmiy asosga ega bo'lgan manbalarni o'rganish natijasida jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy me'rosi, pedagogik qarashlarini har qanday fanning meto'dikasi bilan bog'lagan holda bugungi ta'limga joriy etish, va ta'lim samaradorligini oshirishga katta hizmat qilishi aniq misollar tarzida ilmiy yangilik sifatida yoritilgan.⁵ Tadqiqot jarayonida jadidlar faoliyatining tarixiylik, qiyosiy taxlil va tizimlashtirish metodlaridan foydalanilgan, buning natijasida o'z davri uchun ham, kelaj ta'limi uchun ham zamonaviy pedagogik g'oyalarni qoldirib ketganligi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi.

Taxlil va natijalar : Mahalliy taraqqiyparvar jadidlar o'z muoffaqiyatlarini qandaydur bir xujjat yoki moliyaviy rag'bat bilan emas mehnatlarining ertangi kundagi natijasi bilan belgilaganlar. Turkistonda xalq ta'limini isloh qilishga jur'at etgan mar'ifatparvarlar. Dunyo bo'ylab sayoxat, tijorat, va bilim olish uchun hamda davlat ishlari bilan borgan xududlaridan O'rta osiyo xalqlariga bog'liq qolyozma asarlarni hamda chet elliklar tamonidan O'rta osiyo xalqlari bayoni yoritilgan kitoblarni sotib olib kelganlar. Jadidlarning pedagogik g'oyalari hayotbaxsh kuchga ega bo'lgan. Buni yaqqol namunasi sifatida quyidagilarni taxlil natijalarini aytib o'tamiz.

1. Jadidlar matematika, tabiiy va ijtimoiy fanlarni islomshunoslik bilan bog'lab olib borishni tan olganlar.
2. Zamonaviy ta'lim muassasalariga ta'lim olishlari uchun xotin qizlarni qamrab olishni targ'ib qilganlar
3. Zamonaviy fanlarni islomiy qadriyatlar bilan birgalikda o'quv dasturiga kiritganalar.
4. Milliy ziyolilarni tayyorlash va faoliyatini yo'lga qo'yishga urunganlar.
5. Ota onalar o'z farzandlari tarbiyasi bilan qat'iy shug'ullanishlari lozimligini takidlaganlar.
6. Maktab, madrasadan keyin yoshlarni Rivojlangan davlatlarning oliygohlarida bilim, tajribalarini oshirishi lozimligini aytganlar.
7. Ta'lim maskanlari atrofida dokonlarning mavjud bo'lmasligi lozimligini uqtirganlar.
8. Kamida bitta xorijiy tilni o'rganishga yoshlarni undaganlar.
9. Ta'limda qadriyatlar integratsiyasini amalga oshirganlar.
10. Yangi tuzumdagi maktablarni faoliyatini rag'batlantirganalar.
11. Jadidlar dars jarayonida zamonaviy yondashuvlarni pedagogikaga olib kirib, muhokama, munasabat, mantiqiy fikrlashni yoshlarga o'rgatganlar.

⁵ JADID MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo'qon universiteti dotsenti Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika
Instituti 2-bosqich talabasi. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 2024-y. 11 son.

12. Yangiliklardan xabardor bo'lish va zamonaviy ta'lim bosqichini o'rta darajadan yuqoriga ko'tarib borish lozimligini takidlaganlar.
13. O'g'il bolalar va qizlar ta'limiga ularni fiziologiyasini hisobga olgan holad alohida , alohida etobor qaratganlar.
14. Tarix va kelajakni umumiy bog'liqlikda ekanligini asoslab berilgan.
15. Inson qadri ta'limda yuksak bo'lishi lozimligini, isbotlab berishgan.
16. Ular ta'limning faqat diniy ko'rinishda bo'lishi, dunyoviy bilimlarning yo'qligi esa milliy taraqqiyotning asosiy to'siqlaridan biri ekanligini tushuntirishgan.

Zamonaviy pedagogikaga asos soluvchi qadriyatlarni shakllantirdi. larning ta'lim sohasidagi faoliyati milliy uyg'onish g'oyalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi faoliyat yuritgan jadidlar harakati va ularning pedagogika sohasiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Jadidlar yangi usuldagi maktablar ochish, ilmiy-adabiy darsliklar yaratish, o'qituvchilar malakasini oshirish va milliy ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatni savodxon qilishga va uni zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashtirishga intilganlar. Xususan, bolalar va qizlar ta'limiga e'tibor qaratilib, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish tamoyillarini amalda joriy qilganlar.

Xulosa va takliflar: Kelajak kasblar orasida o'qituvchilik dastlabki o'rinni ko'rsatib turganligini anglagan xolda bugungi kun o'qituvchilari tafakkurida xam jadidlar mushoxadasi o'z o'rnini egallashi lozim. Zero uchinchi renessansni qurish uchun asosiy kuch bo'lgan yoshlarga ta'lim tarbiya berish , yo'naltirish, g'oyaviy asoslarni shakillantirish, pedagogik faoliyat bilan bog'liqdir. Jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalarning ezgu g'oya va amaliy faoliyatlarini to'la ro'yobga chiqishini zamonaviy jonkuyar o'qituvchilari davom ettirishlari lozim. Bugungi kundagi mavjud ta'limdagi muammolarni o'z davrida Turkiston jadidlari anglab yetganlar . Ularning ta'limiy-tarbiyavi, siyosiy- iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy faoliyatini tahlil qilar ekanmiz zamonaviy pedagogik fikrlari naqadar yuksak bo'lgan ekanligini bilishimiz mumkin. Zamonning dolzarb masalalarini hayotning muammolarini nazariy bilimlar bilangina emas balki o'zlarining moliyaviy fidokorliklari bilan namoyon etdilar. Nafaqat yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish balki xalq ommasini ham ongida zamonaviy g'oyalarni ta'limga bog'lagan xolda ilg'or fikrlar uyg'ota oldilar.

Yuqoridagilar asosida quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz.

1. Inson omili g'oyasini kelajak ta'limiga uyg'unligini oshirish: Ta'limda inson omilini orttirish , suniy intellekt, raqamli dunyo, media olamda shaxsiy rivojlanishga tayyor pedagoglar zarur. O'z davri uchun ilg'or talim maskani sifatida o'z ish joyini rivojiga hissa qo'shadigan kadrlar tayyorlash:
2. Fikrlarni modernizatsiya qilish: Zamonaviy pedagogk g'oyalardan kreativ foydalanishda jadidlar fikrida namoyon bo'lgan muzey , arxiv va kutubxonalaridagi qolyozma asarlarni o'rganish , tarjima qilish sharx yozish.
3. Pedagog tafakkurida asosan millatparvar ziyoli tafakkuri ustun bo'lishi: Kasbga bo'lgan muhabbat masuliyatni keltirib chiqaradi, masuliyat esa ko'pgina ijobiy yakunlarga, hamda pedagogik fikrlar, kreativ g'oyalar yaralishiga, shuningdek zamonaviy ta'lim islohatlarini amalda qo'llashni rivojiga hizmat qiluvchi sifatidir. Bolajk o'qituvchilarda kasbga muhabbatni rivojlantirish.

Jadidlar faoliyati turli yo'nalishdagi tadqiqotlardan korinib turibdiki ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik natijasida vujudga kelgan. Bugungi kundagi muammolar ham ijtimoiy holatda

ta'limni barqarorlashtirish uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda tarbiya usullaridan oqilona foydalana olishni talab etmoqda .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1913.
2. Behbudiy, M. "Padarkush". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 1911.
3. Vohidov, I. "Jadidchilik tarixi". Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
4. Ahmedov, B. "O'zbekiston jadidchilik harakati". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2002.
5. Ibrat I. Tarixi Farg'ona UzR FA ShI. X inv . N 11616.
6. A.O'.Teshayev, O.Boboqulov " Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi(Ishoqxon Ibrat va Munavvarqori Tashkil etgan maktablar misolida .)

